



JIZZAX VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI


2026 yil yanvar-may oylari uchun dastlabki ma'lumot

- I. Tashqi savdo aylanmasi
- II. Eksport hajmi
- III. Import hajmi
- IV. Metama'lumotlar
- V. Aloqador boshqa havolalar

I. TASHQI SAVDO AYLANMASI

2026 yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 636,3 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2025 yilning mos davriga nisbatan 14,3 mln AQSH dollariga yoki 2,2 % ga kamaydi.

Tashqi savdo aylanmasi (mln AQSH dollari)



TSAda eksport hajmi 87,6 mln AQSH dollarini (2025 yilning yanvar-may oylariga nisbatan 24,3 % ga ko'paydi) va import hajmi 548,7 mln AQSH dollarini (5,4 % ga kamaydi) tashkil etdi. Hisobot davrida – 461,1 mln AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



1.1- jadval

**Jizzax viloyatining yirik hamkor davlatlar
bilan tashqi savdo aylanmasi dinamikasi (ming AQSH dollari)**

Davlatlar	2024 y.	2025 y.	2026 y.
XXR	362 979,7	356 213,5	360 635,7
Koreya Respublikasi	277 211,3	67 761,7	75 100,9
Hindiston	9 413,3	104 392,8	68 193,3
Rossiya	29 953,5	30 525,7	30 105,8
Qozog'iston	27 630,9	27 136,4	24 494,2
Tojikiston	1 098,9	2 184,5	23 479,2
Turkiya	29 016,2	11 197,3	9 395,0
Qirg'iz Respublikasi	2 946,0	3 546,5	5 021,8
Afg'oniston	2 817,7	5 329,1	5 001,8
Germaniya	12 182,7	3 516,5	4 033,4
Meksika	55,1	231,4	3 517,9
Eron	3 978,4	1 514,4	3 438,8
Turkmaniston	405,4	1 996,4	2 152,1
Ozərbayjon	174,1	713,8	1 869,0
Singapur	12,2	0,0	1 500,8
AQSH	846,2	1 528,1	1 419,8
Malayziya	0,0	213,0	992,1
Ukraina	325,2	638,4	984,0
Misr	184,5	0,0	928,5
Iroq	688,5	1 820,4	776,2

Jizzax viloyati jahonning 68 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning salmoqli hissasi XXR (56,7 %), Koreya Respublikasi (11,8 %), Hindiston (10,7 %), Rossiya (4,7 %) va Qozog'iston (3,8 %) davlatlariga to'g'ri keldi.

II. YANVAR-MAY OYLARIDA JIZZAX VILOYATINING EKSPORTI TARKIBI

2.1- jadval


Tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2025 y.	2026 y.	2025 y.	2026 y.	2025 y.	2026 y.
Jami eksport	70 453,1	87 591,2	85,2	124,3	100,0	100,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	0,0	25,2	0,0	0,0	0,0	0,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	1 841,9	2 999,4	180,0	162,8	2,6	3,4
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Ichimliklar va tamaki	98,8	1,6	7,1 m.	1,6	0,1	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	36 046,9	22 834,3	147,3	63,3	51,2	26,1
Sanoat tovarlari	14 131,8	29 879,4	34,8	2,1 m.	20,1	34,1
Turli xil tayyor buyumlar	4 989,2	1 303,7	80,0	26,1	7,1	1,5
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1 808,4	806,4	69,3	44,6	2,6	0,9
Xizmatlar	5 937,1	7 476,9	8,1 m.	125,9	8,4	8,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	5 599,0	2 797,7	81,6	50,0	7,9	3,2
Boshqalar	0,0	19 466,6	0,0	0,0	0,0	22,3



Mavzuga doir havola: [Eksport tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 91,5 % ni tashkil etib, asosiy ulushlari sanoat tovarlari (34,1 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (26,1 %), mashinalar va transport asbob-uskunalari (3,4 %) va turli xil tayyor buyumlar (1,5 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Jizzax viloyatining yirik eksportyor hamkor davlatlari (ming AQSH dollari)



Mavzuga doir havola: [Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

2026 yilning yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlar Tojikiston (26,7 %), Rossiya (16,4 %), Qozog'iston (10,3 %), Xitoy (6,5 %), Qirg'iz Respublikasi (5,3 %), Afg'oniston (5,1 %), Turkiya (4,8 %), Eron (2,8 %), Ozarbajjon (2,1 %) va Singapur (1,7 %) kabi davlatlar bo'ldi. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 81,7 % ni tashkil etdi.

Jizzax viloyatining XSST bo'yicha eksporti tarkibi (2-xonali)

2.2- jadval

XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	22 834,3	63,3
05	Sabzavotlar va mevalar	16 430,8	52,0
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	5 155,3	2,5 m.
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	0,2	2,6
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari		
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar		
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	55,9	0,0
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	493,2	7,0 m.
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	1,9	0,0
00	Tirik hayvonlar	125,0	11,1
1	Ichimliklar va tamaki	1,6	1,6
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	1,6	1,6
11	Ichimliklar		
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	806,4	44,6
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari		
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	139,0	52,7
28	Metall rudalari va metall parchalari		
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	176,8	87,0
25	Qog'oz massasi va makulatura		
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	490,6	38,4
23	Tabiiy kauchuk		
4	Probka va yog'och-taxtalar		




XSST kodi	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar		
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar		
34	Tabiiy yoki sun'iy gaz		
35	Elektr toki		
32	Ko'mir, koks va briketlar		
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	25,2	0,0
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)		
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	25,2	0,0
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	2 797,7	50,0
52	Noorganik kimyo moddalari	28,2	2,2 m.
56	O'g'itlar	2 448,0	112,0
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	30,3	199,0
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	290,4	64,4
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari		
51	Organik kimyo moddalari		
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari		
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar		
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	0,8	0,2
6	Sanoat tovarlari	29 879,4	2,1 m.
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	23 411,7	2,4 m.
68	Rangli metallar	184,1	0,0
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	47,1	26,7
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	6 213,3	148,4
67	Cho'yan va po'lat		
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	3,6	3,0
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	1,1	7,3
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	13,5	0,0
62	Boshqa joyda tasniflanmagan kauchuk mahsulotlar	5,0	120,6
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	2 999,4	162,8
78	Avtomobillar (havo yostiichalari transport vositalari ham) shu jumladan: avtomobillarning qismlari va anjomlari	1 191,1	4,7 m.
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	1 261,7	82,3
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	327,8	0,0
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	39,2	156,6
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari		
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	179,6	6,1 m.
79	Boshqa transport uskunolari		
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari		
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar		
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	1 303,7	26,1
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1 051,8	23,7
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	247,1	84,1
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari		
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	2,8	2,1
85	Poyabzal	1,8	2,5
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar		
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	0,2	0,0
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar		



Meva va sabzavotlar eksporti

2026 yilning yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 16 430,8 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2025 yilning mos davriga nisbatan 52,0 % ga kamaydi va jami eksportdagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari eksporti tarkibi



2026 yil yanvar-may oylari yakuniga ko'ra, 29 879,4 ming AQSH dollarilik sanoat mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 34,1 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 martaga ko'paydi.

Eksport qilingan sanoat mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik iplari va matolari (78,4 %) va noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar (20,8 %) asosiy ulushni tashkil qildi.

Xizmatlar eksporti tarkibi (ming AQSH doll.)



Mavzuga doir havola : [Xizmatlar eksporti \(xizmatlar turi bo'yicha, oylik\)](#)

Xizmatlar eksporti hajmi 7 476,9 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 8,5 % ulushini tashkil etib, 2025 yilning mos davriga nisbatan 25,9 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi telekommunikatsiya, kompyuter va axborot (76,0 %), qurilish (20,1), moliya (3,1 %) va safarlar (0,8 %) hissalariga to'g'ri kelgan.



III. JIZZAX VILOYATINING IMPORTI

2026 yilning yanvar-may oylarida import hajmi 548,7 mln AQSH dollarini tashkil etib, 2025 yilning mos davriga nisbatan 5,4% ga kamaydi. Import tarkibida eng katta ulush mashinalar va transport asbob-uskunalari importi (71,1%) hissasiga to'g'ri keldi. Shuningdek, sanoat tovarlari 5,0% hamda turli xil tayyor buyumlar 3,7% ulushga ega bo'ldi.

Jizzax viloyatining importi tarkibi

3.1-jadval

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2025 y.	2026 y.	2025 y.	2026 y.	2025 y.	2026 y.
Jami import	580 127,8	548 696,7	71,5	94,6	100,0	100,0
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 599,0	780,4	5,9 m.	48,8	0,3	0,1
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	487 656,0	390 213,1	65,0	80,0	84,1	71,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6 149,0	9 002,3	77,7	146,4	1,1	1,6
Ichimliklar va tamaki	0,1	0,0	0,7	0,0	0,0	0,0
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	9 442,2	15 256,2	75,2	161,6	1,6	2,8
Sanoat tovarlari	27 513,2	27 325,6	2,5 m.	99,3	4,7	5,0
Turli xil tayyor buyumlar	25 459,1	20 242,6	2,3 m.	79,5	4,4	3,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 005,6	8 442,8	149,1	2,8 m.	0,5	1,5
Xizmatlar	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0	0,0
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	19 303,6	21 719,4	117,1	112,5	3,3	4,0
Boshqalar	0,0	55 714,3	0,0	0,0	0,0	10,2

Mavzuga doir havola: [Import tarkibi \(XSST-2008\) \(oylik\)](#)

Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2026 yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 31 431,1 ming AQSH dollariga kamaydi, 548 696,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



Jizzax viloyatining yirik importyor hamkor davlatlari (ming AQSH dollari)

Xitoy	354955,7
Koreya Respublikasi	74721,6
Hindiston	67687,5
Rossiya	15708,2
Qozog'iston	15470,1
Turkiya	5171,7
Meksika	3517,9
Germaniya	3035,8
Eron	1010,7
Malayziya	957,1

2026 yilning yanvar-may oylarida 51 ta davlatdan tovar va xizmatlar importi amalga oshirildi. Yirik hamkor davlatlar XXR (64,7 %), Koreya Respublikasi (13,6 %), Hindiston (12,3 %), Rossiya (2,9 %), Qozog'iston (2,8 %), Turkiya (0,9 %) va Meksika (0,6 %) davlatlari jami importning 97,8 % ini tashkil etdi.

Jizzax viloyatining XSST* bo'yicha importi tarkibi (2-xonali)

3.2- jadval

XSST kod	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
0	Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	15 256,2	161,6
04	Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	7 479,6	2,5 m.
06	Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	382,0	46,1 m.
05	Sabzavotlar va mevalar	2 525,6	157,4
01	Go'sht va go'sht mahsulotlari	199,8	0,0
07	Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	192,0	61,1
02	Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	611,1	73,5
08	Hayvonlar uchun ozuqalar	1 347,6	2,2 m.
09	Har xil oziq-ovqat mahsulotlari va preparatlar	759,6	56,6 m.
00	Tirik hayvonlar	1 758,9	56,7
03	Baliq (dengiz sutemizuvchilari bo'lmagan), qisqichbaqasimonlar, mollyuskalar va suvda suzuvchi umurtqasizlar va yarim tayyor mahsulotlar		
1	Ichimliklar va tamaki	0,0	0,0
11	Ichimliklar	0,0	0,0
12	Tamaki va tamaki mahsulotlari	0,0	0,0
2	Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	8 442,8	2,8 m.
24	Probka va yog'och-taxtalar	385,4	39,8
22	Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	6 341,6	8,2 m.
27	O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	1 072,5	128,7
26	To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	23,0	149,6
28	Metall rudalari va metall parchalari	1,0	0,0
25	Qog'oz massasi va makulatura		
29	Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	543,4	196,1
23	Tabiiy kauchuk	75,9	57,9
21	Terilar, teri xomashyosi va mo'yna, ishlov berilmagan		



XSST kod	XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	O'sish sur'ati % da
3	Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	9 002,3	146,4
32	Ko'mir, koks va briketlar	2 193,9	46,8
33	Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	5 393,2	3,7 m.
34	Gaz, tabiiy va sun'iy	1 415,2	0,0
4	Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	780,4	48,8
42	O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	567,5	42,9
43	Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	212,9	77,0
5	Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	21 719,4	112,5
54	Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	412,2	11,7
57	Birlamchi shakldagi plastmassalar	6 158,8	167,5
59	Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	1 837,2	89,3
55	Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	3 00,5	157,7
51	Organik kimyo moddalari	3 003,7	3,4 m.
52	Noorganik kimyo moddalari	5570,0	97,1
53	Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	2 485,0	197,7
58	Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	1 951,3	98,3
56	O'g'itlar	0,7	0,0
6	Sanoat tovarlari	27 325,6	99,3
67	Cho'yan va po'lat	3 930,8	47,8
69	Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	12 397,2	2,2 m.
65	To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	4 306,0	85,9
62	Rezina buyumlari	1 725,0	55,3
64	Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	156,0	46,5
63	Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	25,7	3,9 m.
66	Noruda qazilmalardan olingan mahsulotlar	3 955,8	85,9
68	Rangli metallar	825,6	165,0
61	Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	3,5	151,0
7	Mashinalar va transport asbob-uskunolari	390 213,1	80,0
72	Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	30 100,5	89,2
78	Avtomobililar (havo yostiqlaridagi transport vositalari ham) shu jumladan:	267 524,1	79,9
781	<i>asosan yo'lovchilarni tashish uchun mo'ljallangan dvigatelli avtomobillar va boshqa transport vositalari</i>		
784	<i>avtomobillarning qismlari va anjomlari</i>		
74	Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	7 826,5	43,1
77	Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	30 767,0	70,3
76	Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	3 962,6	67,2
71	Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	48 375,1	102,8
79	Boshqa transport uskunolari	111,3	0,0
	<i>shu jumladan: samolyotlar va uchish apparatlari, mexanik (vertolyotlardan tashqari)</i>		
75	Kanselyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	885,6	42,0
73	Metallarni qayta ishlash mashinalari	660,4	35,9
8	Turli xil tayyor mahsulotlar	20 242,6	79,5
89	Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 412,3	78,4
87	Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	6 095,2	67,5
82	Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	9 177,2	66,7
81	Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	883,9	3,1 m.
84	Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	44,4	108,2
85	Poyabzal	11,4	2,1 m.
83	Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	8,3	10,0
88	Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	2 609,9	5,8 m.



IV. METAMA'LUMOTLAR

*Tovarlar tashqi savdosi statistika ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (TIF TN) bilan birgalikda, BMTning Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.

Tashqi savdo statistikasi, tovarlar va xizmatlar tashqi savdosi asosida shakllantiriladi: tovarlar tashqi savdosi statistikasini shakllantirishda dastlabki ma'lumotlar bo'lib, Bojxona qo'mitasining bojxona yuk deklaratsiyasining ma'lumotlari hamda Milliy statistika qo'mitasining rezedentdan norezedentga o'tuvchi, davlat chegarasini kesib o'tmaydigan va bojxona deklaratsiyasida hisobga olinmaydigan tovarlarni statistik kuzatuvlari hisoblanadi; tashqi savdo xizmatlar statistikasini shakllantirish statistika kuzatuvlari asosida amalga oshiriladi.

V. ALOQADOR BOSHQA HAVOLALAR

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasining o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi hajmi \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Tashqi savdo aylanmasi o'sish sur'ati \(mamlakatlar kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(hudular kesimida, yillik\)](#)

[Eksport hajmi \(mamlakatlar kesimida, oylik\)](#)

[Import hajmi \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

[Importning o'sish sur'ati \(yillik\)](#)

Chop etishga masul: Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi	Bo'lim boshlig'i: D.Mayliboeva Tel: +998712308000 (1180)	Ijrochi: D.Zokirova Tel: +998722215126 (2540)	Manzil: 130100, Jizzax sh., To'qimachilar ko'chasi, 7-uy
--	---	---	--